

G'ijduvon tuman Axborot-kutubxona Markazi
Axborot- bibliografiya xizmati

O'lkamiz yozuvchisi Komil Jo'rayev
(Bibliografik ro'yxat)

HAYOTI VA IJODI

Komil Jo‘rayev 1950-yilda Firishkent qishloq fuqarolar yig‘iniga qarashli Kudre qishlog‘ida ziyoli oilasida tug‘ilgan. Otasi - Olim Jo‘rayev (1925-2001) jurnalist, uzoq yillar tuman va viloyat gazetalari tahririyatlarida turli lavozimlarda ishlagan. Onasi - Hokima Jo‘rayeva (1927-1996) uy bekasi. Yetti nafar farzandni voyaga yetkazish bilan band bo‘lgan.

Komil Jo‘rayev 1957-yilda shahardagi sobiq Telman nomli 5-maktabning 1-sinfiga borib, 1967-yilda 10-sinfni tugatdi. Shu yili Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakultetiga o‘qishga kirib, 1972-yilda bitirdi.

Mehnat faoliyatini 1972-yilda G‘ijduvondagi “Kolxoz haqiqati” (hozirgi “G‘ijduvon”) gazetasi tahririyatida muxbirlikdan boshladi. Keyinchalik bo‘lim mudirligiga o‘tkazildi.

1977-1978 yillarda tuman komsomol komitetining tashkiliy bo‘lim mudiri vazifasida ishladi. 1978- yildan, 1988-yilgacha tuman partiya qo‘mitasining tashkiliy bo‘limida instruktor, partiya komissiyasi raisi, tashkiliy bo‘lim mudiri, mafkura masalalari bo‘yicha sekretar sifatida faoliyat yuritdi. Shu yillar mobaynida bir necha marta tuman kengashi deputatligiga saylandi.

1988-yildan 2010-yilgacha “G‘ijduvon”, “Dardkash” va “Atorud” gazetalari tahririyatlarida mas’ul kotib, muharrir o‘rinbosari bo‘lib ishladi. 2010-yilda qarilik nafaqasiga chiqdi. Nafaqaga chiqqach ijodiy ish bilan jiddiyroq shug‘ullanishga imkon topdi. Hikoyalari tuman, viloyat, respublika gazeta va jurnallarida bosila boshladi. 2011-yilda “Kuzgi qaldirg‘och”, 2016-yilda “Visol va hijron”, 2022-yilda “Uchinchi bekat” deb nomlangan hikoyalar to‘plamlari nashrdan chiqdi. Bugungi kunda ham ijod bilan mashg‘ullanib kelmoqda. U O‘zbekiston jurnalistlar uyushmasi a‘zosi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Kitoblar

1. Жўраев, Комил. Висол ва ҳижрон [Матн] : ҳикоялар / К. Жўраев. – Тошкент : MASHNUR –PRESS, 2026. – 160 б.
2. Жўраев, Комил. Кузги қалдирғоч [Матн] : ҳикоялар / К. Жўраев. – Тошкент : Санъат, 2011. – 178 б.
3. Жўраев, Комил. Учинчи бекат [Матн] : ҳикоялар, нонрезалар, хотиралар / К. Жўраев. – Тошкент : Qamar-media, 2022. – 376 б.

Maqolalar

4. Жўраев, К. Шабнам : [назм] / К. Жўраев // Адабиёт газетаси. – 2019. – 24 авг. – №13-14. – Б. 9.
5. Жўраев, К. Йўлдаги ҳангомалар : [ҳажв дафтарида] / К. Жўраев // Адабиёт газетаси. – 2022. – 17 дек. – №12. – Б. 8.
6. Жўраев, К. Йўқолган этик : [чимдим ҳикоя] / К. Жўраев // Адабиёт газетаси. – 2021. – 6 окт. – № 44-45.
7. Жўраев, К. Чошгоҳдан сўнг : [ҳикоя] / К. Жўраев // Адабиёт газетаси. – 2025. – 18 нояб. – № 16. – Б.11.
8. Жўраев, К. Қора товук : [ҳажвия] / К. Жўраев // Mushtum. – 2020. – №1. – Б. 6.
9. Жумахўжа, Н. Кузги қалдирғоч : [китоб ҳақида] / Нусратулла Жумахўжа // Qalqon. – 2011. – июн. – № 6. – Б. 38.

